



MIRKARIM OSIM: THE HISTORICAL NOVELIST FOR CHILDREN

Xurshida Xamrakulova

Doctor of Philology, Professor

University of Applied Sciences

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577140>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Story, story, historical heroic story, historical-biographical story, historical-domestic story.

ABSTRACT

This article is devoted to the place of the work of Mirkarim Asim, a writer who devoted his entire creative activity to writing historical works, artistically researching the fate of folk heroes from the distant past of the people's history with his works, and making an incomparable contribution to the culture of the nation, in the spiritual life of children. The article analyzes two stories and about ten short stories of the writer. The contribution of the realities and historical images captured in these stories to the development of children's and adolescent literature is shown on the basis of analysis and interpretation. It was emphasized that in the work of Mirkarim Osim, who used historical themes to serve the times, the central issue of his work was to illuminate the theme of the past, to teach lessons from the past by depicting the courageous lives of national heroes and science devotees in history. He was a creator who considered it important not to reflect romantic thinking and events on a large scale, as in a novel, but to revive the past through the fate of a hero within the framework of a story. In achieving this goal, the story genre provided an opportunity to express historical facts without distorting them. At the same time, the writer's work opened up the unlimited possibilities of the story genre, and its diverse manifestations appeared.

MIRKARIM OSIM BOLALARNING TARIXNAVIS ADIBI

Xamrakulova Xurshida Kuvvatovna

Filologiya fanlari doktori, Toshkent amaliy fanlar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori.

E-mail: xamrakulova.xurshida@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577140>

ARTICLE INFO

Received: 25th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

ABSTRACT

Mazkur maqola o'zining butun ijodiy faoliyatini tarixiy asarlar yozishga bag'ishlagan, asarlari bilan xalq tarixining olis qa'ridagi xalq qahramonlari taqdirini badiiy jihatdan tadqiq qilib, millat tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan adib Mirkarim Osim ijodining bolalar ma'naviy hayotida tutgan o'rniga bag'ishlanadi. Maqolada adibning ikki hikoyasi va o'nga yaqin



KEYWORDS

Hikoya, qissa, tarixiy qahramonlik qissasi, tarixiy-biografik qissa, tarixiy-maishiy qissa.

qissasi tahlilga tortildi. Bu qissalarda qalamga olingan voqeliklar, tarixiy obrazlarning bolalar va o'smirlar adabiyoti ravnaqiga qo'shilgan hissasi tahlil va talqinlar asosida ko'rsatib berildi. Tarixiy mavzularni zamonga xizmat qildirgan Mirkarim Osimning ijodida o'tmish mavzusini yoritish, tarix qatidagi xalq qahramonlari, ilm-fan fidoyilarining jasoratli hayotini tasvirlash orqali moziydan saboq berish ijodining o'zak masalasiga aylangani ta'kidlandi. U romandagidek romanik tafakkur va voqeani keng ko'lamda aks ettirishni emas, qissa doirasida bir qahramon taqdiri orqali o'tmishni jonlantirishni muhim deb bilgan ijodkor. Bu maqsadni amalga oshirishda qissa janri tarixiy faktlarni buzmasdan ifodalash imkoniyatini berar edi. Ayni vaqtda adib ijodi bilan qissa janrining cheksiz imkoniyatlari ochildi, uning xilma-xil ko'rinishlari paydo bo'ldi.

Kirish

XX asr o'zbek adabiyotida tarixiy qissalarning yaratilishi Mirkarim Osim nomi bilan bog'liq. Adib asarlarining deyarli barchasi qissa janrida bitilgan. Bir janr doirasida turli qahramonlar taqdirini yoritish, tarix solnomasini asl holicha, buzmasdan badiiyat nurlari bilan jilolantirib zamonga tanishtirish XX asr sharoitida oson kechmagan. Sho'ro davrining manfur va qattol siyosatiga qayta-qayta guvoh bo'lgan, bu siyosatning achchiq ta'mini totgan, natijada o'n yillar turli lagerlarda qiyin-qistovli qismatga majbur qilingan, ammo umrining oxiriga qadar xalqning buyuk o'tmishiga murojaat qilish, ulug' shaxslar taqdirini soxtalashtirmay aks ettirish, o'zbek xalqining buyuk kechmishga egaligini ko'z-ko'z qilish va ta'kidlashdan tolman Mirkarim Osim asarlari Vatan tarixini o'rganishda noyob badiiy manbalardan bo'lib xizmat qilmoqda.

Material va metodlar

Mazkur maqolani yoritishda Mirkarim Osimning "Shiroq", "To'maris" hikoyalari, tarixiy biografik mavzudagi "Jayhun ustida bulutlar", "Ibn Sino qissasi", "Aljabrning tug'ilishi", "Zulmat ichra nur", tarixiy qahramonlik mavzusidagi "Temur Malik", "O'tror", tarixiy-maishiy mavzudagi asarlar doirasiga "Karvon yo'llarida" ("Elchilar"), "Xorazm elchisi" ("Do'stlik qaldirg'ochlari"), "Nur va zulmat" ("Ko'ngil mehrobi"), "Mohlaroyim va Xonposhsha" kabi qissalari, shuningdek, mavzuni yoritishda qiyosiy-tipologik va biografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Asrlar silsilasidagi voqelikni tiriltirish va uni zamondoshlariga oyna etib tutish uchun tarixni va bir necha tillarni chuqur bilish, arab va fors, rus tilidagi tarixiy va ilmiy manbalarini aslida o'qiy olish iqtidori bilan barobar ijodkorning qiyofasini belgilab beradigan shijoat va jasorat ham talab qilinar edi. Ана шундай салоҳият эгаси Миркарим Осим ижодining dastlabki davrlarini she'r yozishdan boshlagan бўлса ҳам tizmalarida tarixiy qahramonlarni aks ettirdi. Uning "Geraklit" she'ri, keyinroq "Gerkules" deb nomlangan tarixiy ocherki yozuvchini ijodning бошлариданоқ тарихий мавзудаги asarlar yozishiga turtki berdi. Albatta, eski maktabda olgan bilimlari mumtoz ijodkorlar asarlarini aslida o'qishiga, ularning



tarixi bilan qiziqishiga, shuningdek, Navoiy nomidagi pedagogika texnikumidagi imkoniyatlar uning jahon tarixini chuqur o'rganishga sharoit yaratdi. Tarix fani bo'yicha yaratgan metodik va o'quv qo'llamalar, qator maqolalarida tarix faniga yo'llovchi adib sifatida yondashdi.

Ijodkorning hayoti u yozib qoldirgan asarlari bilan o'lchanadi. Mirkarim Osimning katta tadqiqotchilaridan Mahmud Sattorov yozuvchi ijodini davriy jihatdan uchga bo'lib o'rgangan edi:

“1. Tariximizning qadimgi davri haqidagi hi koyalar. (Makedoniyalik Iskandar, so'ngra arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning O'rta Osiyoga yurishlari haqidagi asarlar.)

2. O'rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlari. (Mo'g'ullar istilosi va buyuk fan, madaniyat arboblari haqidagi biografik qissa, hikoyalar.)

3. XVIII asrdan Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr. Tarixiy hayotini badiiy aks ettirgan asarlar turkumi” [1.4-5].

Ko'rsatilgan davrlashtirishga bugungi nuqtayi nazardan ozroq tahrir kerak bo'ladi. O'rta asrlar V–XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Tarixchilar o'rta asrlarning o'zini ham uchga bo'lishadi:

1. Ilk o'rta asrlar (V–IX asrlar)
2. Rivojlangan o'rta asrlar (IX– XVI asrlar)
3. So'nggi o'rta asrlar (XVI– XIX asrning o'rtalari).

Shundan kelib chiqib, Mirkarim Osim asarlarini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya qilamiz:

1. Islomgacha bo'lgan davr tarixini yoritgan asarlar. Bularga To'maris”, “Shiroq”, “Iskandar va Spitamen” qissalarini kiritish mumkin.
2. O'rta asrlar tarixini yoritgan asarlar: “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “O'tror”, “Temur Malik”, “Yulduzlar sayri”, “Zulmat ichra nur”, “Karvon yo'llarida”, “Do'stlik qaldirg'ochlari”, “Singan setor”, “Nur va zulmat”, “Mohlaroyim va Xonposhsha”, “Zulmat va muhabbat nuri”, “G'alabadan keyingi kulfat” (so'nggi ikki qissa Toshkent tarixidan hikoya qiladi).
3. XIX asrning ikkinchi yarmidan Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan tarixiy davrni aks ettirgan asar: “Tilsiz guvoh” (Oktyabr to'ntarishidan avvalgi o'zbek kosiblarining ayanchli taqdiri hususida).

Adabiyotshunos olim professor Sobir Mirvaliyev Mirkarim Osim asarlarini uchta katta mavzu doirasida tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi:

1. Tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlar.
2. Tarixiy-maishiy mavzudagi asarlar.
3. Tarixiy-tarjimayi hol asarlari [2.59].

Tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlar sirasiga To'maris”, “Shiroq”, “Iskandar va Spitamen”, Mahmud Torobiy”, “O'tror”, “Temur Malik”; tarixiy-maishiy mavzudagi asarlar doirasiga “Karvon yo'llarida” (“Elchilar”), “Xorazm elchisi” (“Do'stlik qaldirg'ochlari”), “Nur va zulmat” (“Ko'ngil mehrobi”), “Mohlaroyim va Xonposhsha”; tarixiy-tarjimayi hol asarlariga “Jayhun ustida bulutlar”, “Ibn Sino qissasi”, “Yulduzlar sayri”, “Zulmat ichra nur”, “Singan setor” kabi qissalarini kiritmoq mumkin.

II jahon urushi yillarida Mirkarim Osim vatanparvar xalq qahramonlarini asarlarida gavdalantirdi. Inolchiq, Spitamen, Temur Malik kabi qahramonlar hayotiga bag'ishlangan shonli va shukuhli hikoyalar shu yillarning mahsuli edi.



Yuqorida ta'kidlanganidek, Mirkarim Osim o'tgan asrning 50-yillar qatag'onining ma'naviy qurbonlaridan biriga aylandi. 60-yillarda vataniga qaytgan ijodkor yana tarixiy asarlar yozdi. O'zining falsafiy qarashlarini badiiyat qa'riga joyladi. Nashriyotlarda kichik adabiy xodim bo'lib ishladi. "Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl manbani buzmay, qayta badiiy jonlantirishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari 70–80; 90-yillar tarixchi adiblari uchun asosiy manba vazifasini o'tadi"[2.60.].

"Rabg'uziydan Mirxondgacha, Abdurazzoq Samarqandiydan Abulg'oziygacha, Ogahiydan Qodiriy, Oybek, Mirkarim Osimgacha... – bular tarix degan quyoshning atrofida abadul-abad aylanadigan yulduzlar. Ularni hayotning o'zi, inson ongi taraqqiyotining uzluksizligi birlashtirib turadi, bir qondosh jonli ipga tizadi"[3.379]. Bu fikrlar qadimgi dunyo tarixidan XX asrgacha bo'lgan tarixni o'z ijodida qamray olgan, tarixning turli davrlarida kechgan suronli kechmishni vatan mard va jasur insonlari va millat fidoyilari timsolida asarlari mag'ziga singdirgan, ularni o'z hayotini xavf ostiga qo'yib ham xalqqa yetkazishni buyuk bir qismat deb bilgan Mirkarim Osimga berilgan munosib bahodir. O'rta avlod Mirkarim Osim asarlarini boshlang'ich ta'lim darsliklaridan boshlab biladi. Mirkarim Osimgacha bolalar adabiyotida tarixiy mavzularda yozilgan asarlar deyarli kuzatilmagan. Aslida, yozuvchi asarlari jamiyatning hamma qatlamiga, yosh-u qariga birday xizmat qilishi, adib asarlari hammaga barobar ma'naviy kuch, ilhom baxsh etishini ta'kidlash lozim. Shaxs bo'lib shakllanishning o'smirlik, o'spirinlik pallalarida Mirkarim Osimning tarixiy asarlari Vatanga muhabbat, ilm-fanga g'ayratini oshirishda muhim o'rin tutadi. Har bir ishni o'zgalar ko'magida emas, o'zicha bajarishga intilayotgan, shu asnoda mustaqil shaxsga aylanayotganini anglab borayotgan o'smir uchun bolalik davri nihoyalani, alohidalikni namoyon qilishga intilish davri boshlanadi. Yoshlikning bu o'tish davrida alohida shaxslarning amalga oshirgan ishlari, ko'rsatgan jasoratlari, tarix sahnasidagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining chet el bosqiniga qarshi mardonavor kurashgan xalq, uning qahramonlari taqdiridan bayon qiluvchi qator asarlari tarixni haqqoniy yorituvchi badiiy solnomalari o'smir bolaning ma'naviy, jismoniy kamol topishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Eron bosqinchilariga qarshi kurashgan massaget va shak qabilalari hayotidan hikoya qiladigan "To'maris", "Shiroq", yunon bosqiniga qarshi jonini tikkan xalqning matonatini aks ettiruvchi "Iskandar va Spitamen", mo'g'ullarning ayovsiz va beshafqat siyosatiga qarshi jasorat ko'rsata olgan, mo'g'ul yetakchilarini ham tong qoldirgan "Mahmud Torobiy", "O'tror", "Temur Malik" kabi qissalari yosh avlodning vatanparvar ajdodlariga yuksak ehtiromini tarbiyalaydi.

Xalq ma'naviyati takomilida ilm-fan darg'alarining zahmatlari bilan bitilgan asarlarining o'rnini beqiyos. Yirik shaxslarning hayoti, ularning suronli kechmishi har doim qiziqish uyg'otgan. Bu borada Mirkarim Osimning "Aljabrning tug'ilishi", "Jayhun ustida bulutlar", "Ibn Sino qissasi", "Yulduzlar sayri" qissalari ma'naviy ehtiyojni qondiradigan asarlaridan hisoblanadi. Mirkarim Osim bu asarlarida buyuk yurtodoshlarimizning olamshumul kashfiyotlaridan hikoya qiladi. 1983-yilda Muhammad al Xorazmiyning 1200-yillik yubileyi arafasida yaratilgan "Aljabrning tug'ilishi" nomli ixcham qissasida buyuk matematik allomaning adabiy portreti, matematikaga oid jahonshumul kashfiyoti mahorat bilan tasvirlandi.

Xorazmiy hayoti, uning Ma'mun akademiyasi olimlarining hayratiga sabab bo'lgan "0" raqamining o'nlik sanoq sistemasidagi ahamiyat darajasi va murakkab matematik amallarning oson yechimini ko'rsatuvchi buyuk kashfiyoti, faylasuf nomini abadiylikka muhrlagan "Aljabr



val-muqobala” asarining yaratilishi, hind sanoq sistemasining arab sanoq sistemasiga uyg’unlashtirilishi kabi ilm-fan taraqqiyotida tub burilish yasagan ilmiy faoliyatining jonli manzaralarda aks etishi o’quvchini bee’tibor qoldirmaydi. Yoki “Jayhun ustida bulutlar” qissasida yetim bola Abu Rayhonning favqulodda iqtidori va noyob quvvai hofizasi – xotira kuchi bilan podshohning yaqin qarindoshi – ilm-ma’rifat rahnamosi Abu Nasr Iroqning nazariga tushishi-yu, uning homiyligida tarbiya topishi, fanning bir necha tarmog’ini rivojlantirishga qo’shgan hissasi, ulkan qomusiy olim sifatidagi faoliyati, oqilligi va vaziyatga to’g’ri baho bera olishi tufayli o’zi va o’zgalarning hayotini saqlab qola bilgan ulkan olim Beruniy hayoti bilan ham Mirkarim Osim ijodi orqali tanishadi.

Chigal va jumboqli shaxsiy hayoti bilan turli tuman qarashlarga boy bo’lgan Ibn Sinoning ulkan olimlik qiyofasi Mirkarim Osimning mashaqqatli mehnati tufayli oydinlashdi. Umrining asosiy qismini quvg’inlikda o’tkazgan Ibn Sinoning jahon ilmiga qo’shgan beqiyos hissasi o’laroq qoldirgan ilmiy merosi uning darbadarlikda kechirgan umri davomida yaratildi. Ta’qib va tazyiqlarga qaramay, o’zidan, shaxsiy xalovatidan kechib yaratgan tibbiyot ilmiga oid nodir asarlari iste’dodiga qo’yilgan haykal bo’lib qoldi. O’quvchi yurtdoshlarimizning buyuk jasorati haqida ma’lumot olar ekan, shubhasiz, bu allomalarga qondosh, eldosh bo’lganligidan faxrlanadi. O’z vaqtda o’rta maktab darsliklaridan joy olgan yozuvchi asarlari minglab yoshlarni ajdodlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyaladi. Bu asarlarning tarixiy va ilmiy qiymati, badiiy nafosati, lavha va manzaralarning jonli tasviri, obrazlarning haqqoniy qiyofasi bugunning kitobxonini ming yillik tarix haqidagi tasavvurlarini tiniqlashtiradi.

Yaqin va uzoq yurtlar bilan iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hamkorlikning yo’lga qo’yilishi tamaddun taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko’rsatgani tarixdan ma’lum. Shu bois uzoq mamlakatlar bo’lgan yunon va rum, arab va ajam yurtlaridagi ilm-ma’rifat nuridan ko’hna yurtimiz toliblari bahramand bo’lgan, savdo aloqalarining mustahkam rivoji tufayli boshqa o’lkalardan keltirilgan mahsulotlar o’zbek bozorlarini to’ldirgan, ayni vaqtda xorijiy bozorlarda bizning yurtimizda yetishtirilgan ne’matlarga talab katta bo’lgan. Bu aloqalar asrlar davomida og’ishmay amalga oshirilgani ham mamlakatlar orasidagi tinchlik, hamkorlik bitimlarining barqaror kuchga ega bo’lganini tasdiqlaydi. Mirkarim Osim ijodida maishiy hayotning turli qirralarini yorituvchi asarlar bilan birga do’stlik va birodarlik kabi umuminsoniy xislatlarning millat taraqqiyoti rivojida ahamiyatini ko’rsatuvchi qissalar ham mavjud. 1960-yilda muallifning “Elchilar” (keyinroq “Karvon yo’llarida” deb atalgan) qissasi bosiladi. 1963-yilda rus tilida nashr etildi. Elchi obrazi Mirkarim Osimgacha o’zbek adabiyotida yaratilmagan edi. Adib elchi obrazini ma’naviy jihatdan boyitib, yana bir qissada yoritdi. 1964-yili muallifning “Elchilar” nomi bilan “Karvon yo’llarida” va “Do’stlik qaldirg’ochlari” qissalari chop etilgan. Qissalarda mamlakatlar orasidagi elchilik faoliyatiga e’tibor qaratildi. Tarixdan ma’lumki, qadimdan qo’shni davlatlar orasiga baland tog’lar to’siq bo’lib turgan, dengiz ular orasini yaqin qilgan zamonlarda Rossiya va Markaziy Osiyo hududi o’rtasida okean singari yastanib yotgan cho’l va sahrolar o’rtasida cho’l kemasi – nortuyalar vositasida savdo-sotiq ishlari, shu tufayli birodarlik aloqalariga vobasta bo’lgan elchilik ishlari davom etavergan. Elchilar Markaziy Osiyo hukmdorlarining yorliqlarini rus knyazlariga, savdogarlar esa mohir hunarmandlar to’qigan harir matolarni rus bozorlariga eltar, Rossiyadan temir mahsulotlar – sovut-qalqon, igna, qozon; ov qushlari, suvsar va tulki mo’ynalari, mum-asal va boshqa haridorgir narsalar keltirishgan. Savdo tufayli o’zaro do’stlik aloqalari ham mustahakamlangan. Yozuvchi o’z



kitobini “do’stlik qaldirg’ochlari bo’lgan o’sha elchilarning xotirasiga bag’ishlaymiz”, – deganida ikki mamlakat o’rtasida tanda qurib, do’stlik poyandozini to’qigan elchilarni nazarda tutgan edi. Elchilik munosabatining yorqin tasvirlanishi, xalqimizning bosh maslagi bo’lib kelgan tinchlik va totuvlik, do’stlik kabi abadiy tushunchalarning ijtimoiy-siyosiy hayotdan ma’naviy hayotimizgacha barqaror tamoyillarga aylanganligini yorqin tasvir etishi jihatidan bu qissalarning ayricha ahamiyati bor. “Karvon yo’llarida” qissasi hamkorlikning Rus o’lkalari, ayniqsa Moskva bilan XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon (Abdullaxon ibn Iskandarxon – shayboniylar xonadonidan Buxoro xoni. 1557-1598-yillarda yashab o’tgan –X.H.) tomonidan, “Do’stlik qaldirg’ochlari” asari esa Xiva xoni Arabmuhammadxon¹ning sa’y-harakati bilan rivojlantirilgan mamlakatlar orasidagi tinchlik, birodarlik aloqalarining muntazamligini ta’minlovchi diplomatik munosabatlarning badiiy talqiniga bag’ishlangan. Garchi yozuvchi podshoh va a’yonlari obrazlarini chuqur tahlil qilmasa ham, ular xususida tarixiy haqiqatga putur yetkazmay xolis munosabatni saqlab qolgan. Muhammadalibek, Rahimqul, Odamboy kabi elchilar faoliyati tufayli mamlakatlar orasidagi jiddiy voqea-hodisalar, kishilarning ijtimoiy-maishiy hayotiga oid tarixiy lavhalar o’quvchi asar ruhiga chuqurroq kirishga, undan zavq olishga undaydi. Tarixiy asarlarning yengil o’qilishi, oson tushunilishi jihatidan Mirkarim Osim uslubi boshqa tarixnavis yozuvchilarnikidan keskin farq qilishi mana shu qissalarda ham yaqqol namoyon bo’ladi.

Mirkarim Osim asarlari orasida Qo’qon xonligining ayol ijodkorlariga bag’ishlangan asarlari ham mavjud. “Nur va zulmat” (yozuvchining ayrim kitoblariga “Ko’ngil mehrobi” nomi bilan kiritilgan – X.H.), “Mohlaroyim va Xonposhsha” qissalari yaqin o’tmishimizning ayol shoirlari haqida hikoya qiladi. Uvaysiy va Nodirabegimlarning zamondosh, hammaslak ustoz-shogird bo’lgani moziydan ayon. Yozuvchi tarixiy faktlarni jonlantirib, bu shoirlar hayoti haqidagi ko’pchilikka ma’lum bo’lmagan voqea-hodisalar haqida ma’lumotlar beradi. Adib qahramonlari hayotini yoritishda ularning ijod namunalari, o’z davri tarixchilarining nodir asarlari asosida XIX asr hayoti, xon saroyi manzaralarini yoritib ekan, Uvaysiy va Nodirabegimning ko’proq insoniy qiyofasiga, ulardagi onalik tuyg’usiga e’tibor qaratadi. Bu shoirlar o’z davri badiiy adabiyotiga ayol qalbi bilan murojaat qildi. An’anaviy obraz va bir xil mavzularni farzand sog’inchi, onalik tuyg’usi, hijron, zamona kulfatining yetkazgan sitamlaridan shikoyat kabi mavzularini olib kirdilar. Kitobxon Uvaysiy va Nodirabegim misolida millatning oqila, sabr-toqatli va matonatli onalari qiyofasini qayta kashf etadilar.

Mirkarim Osim asarlarining bolalarga xoslangan muhim jihatlaridan biri shuki, yozuvchi qahramonlar tasvirida ularning millat tarixida qoldirgan xizmatlarini asosiy o’ringa qo’ygan uchun qahramonning sevgi tarixiga, shaxsiy intim kechinmalariga deyarli e’tibor qaratmaydi. Mana bu jihat yosh kitobxonni asosiy maqsaddan chalg’itmay, yozuvchining maqsadini, asar g’oyasini aniq tushunishiga imkon beradi.

Mirkarim Osim qalamga olgan qahramonlar tarixda yashab o’tgan, tarix sahnasida u yoki bu vazifani bajarib abadiyat charxpalagining aylanishiga hissa qo’shgan. Yozuvchi qahramonlarini yurtini chet ellik bosqinchilardan ozod etishda jonbozlik ko’rsatgan vatanparlarlar, jahon tamadduniga jiddiy ta’sir o’tkazgan qomusiy olimlar, ma’naviyat gultoiji

¹ Arabmuhammadxon – shayboyniylar sulolasidan Xorazm xoni Hoji Muhammadxonning kenja o’g’li. Otasi hayotligida Xiva hokimi bo’lgan. Taxtga 1602-yilda o’tirib, umrining oxirigacha boshqargan. Bu davrda Amudaryo o’zanini o’zgartirib, Orol dengiziga quyila boshlagach, poytaxtni Urganchdan Xivaga ko’chirgan.



bo'lgan ahli urfonlar orasidan tanlab oldi. Tabiiyki, bu obrazlar yorqin bo'yoqlarning nimchizgisi bilan tasvirga tortildi. Negaki, bu shaxslar yashagan tarixiy davr va ularning hukmdorlari haqida yorqin bo'yoqlar bilan ifodalashning to'la imkoni yo'q edi. Shu nimchizgi tasvirlarda ham muallif tarixiy asar zamirida gavdalangan o'z xalqiga, millatiga, buyuk ajdodlariga cheksiz muhabbatini ifodaladi.

Yozuvchining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashgan Temur Malik va Inolchiq kabi jasur farzandlari haqidagi "Temur Malik" va "O'tror" qissalariga Jaloliddin Manguberding shaxsiy tarixchisi Shahobiddin Nasaviyning "Sulton Jaloliddining hayot yo'li" asari boy tarixiy material berdi. II jahon urushi yillarida Vatan tarixini yoritguvchi sharaf qo'lyozmasi bo'lib bitilgan "O'tror qissasi "Qizil O'zbekiston" va frontda o'zbek tilida chiqadigan "Vatan uchun" nomli gazetalar sahifalarida bobma-bob bosilib bordi. Asar bosh qahramoni Inolchiqning jasorati minglab askarlarni ruhlantirib, ularga ma'naviy madad bag'ishladi. Inolchiq – tarixiy shaxs. U O'tror hokimi, salohiyatli lashkarboshi, Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotun urug'idan. Xorazmshohning otasi turkman, onasi qipchoq edi. Shohning urug'lar orasidagi ichki ziddiyatlarga barham berish o'rniga goh u, goh bu tomonga og'ish siyosati ichki bo'linishga olib keldi, mo'g'ul bosqini esa yuzaga kelayotgan parokandalikni tezlashtirdi. Aqlli va tajribali Inolchiq saroydagi vaziyatni yaxshi bilar edi. Shuning uchun hukmdorlardan ko'ra xalqiga qattiq ishondi, Muhammad Xorazmshohning dushmanga qarshi askarlarni birlashtirmay, ularni tarqoq holda jangga kiritish siyosatiga qarshi chiqdi. Hatto Chingizxon tomonidan kelgan elchilarning o'z yurtdoshlari ekanligini bilgach, o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Ularni hibsga oldi, so'ngroq podsho buyrug'i bilan qatl ettirdi. Bu esa qissada ta'kidlanganidek, "mag'rib sari kelayotgan yovvoyi mo'g'ul otiga bir qamchi urdi-yu, uning yurishini tezlashtirdi". Ba'zan rahbarga xos bo'lmagan qiziqqonlik va sabrsizligini aytmaganda, mohir sarkarda, jasur va irodali jangchi bo'lgan Inolchiq quvlik-shumlik, riyokorlikni bilmaydigan cho'tkesar odam edi. Mana shunday murakkab fe'l-atvor egasi O'trojni oxirgi askari qolguncha himoya qildi. Chingizning sevimli o'g'li O'ktoy "botirlikni mana shulardan o'rganing. Biz yurakli odamlarni o'ldirmaymiz, jasorat har kimga ham muyassar bo'lavermaydi", – deb aytganida, hatto mo'g'ullar ham bu sarkardagi hurmat va hayratini yashirolmay qoladilar.

Chet el bosqinchilariga qarshi erkaklar emas, ayollar ham mardonavor kurashdi, erlari, o'g'illariga ruhiy quvvat bo'ldi. Asar qahramoni Temirtoshning kampir onasi oxirgi damda ham uyini tashlab shahar chetiga ko'chishga rozilik bermadi, bog'ini payhon qilayotgan mo'g'ullarga nafratini yashirmadi. Kampir ona obrazi mo'g'ullarning beshafqatligi, o'z istagi uchun kalla uchirish musobaqasini o'ynash darajasidagi tuban va vaxshiy qiyofasini ko'rsatish uchun kiritilgan edi. Onasining o'limni eshitgan Temirtosh va uning navkarlarida dushmanga qarshi kuchli nafrat uyg'ondi, ular hech ikkilanmay dadil kurash olib bordilar. Yoki Inolchiqning ayoli Oysuluv oxirgi lahzalarda erining yonida turib dushmanga qarshi kurashdi. Asir tushib, erining sha'nini bulg'ashdan ko'ra undan oldin o'lishni afzal bildi va o'zini olov orasiga tashladi. O'sha paytlarda asir tushmaslik va nomusini toptamaslik uchun ayollar yonayotgan uylarga o'zini urib o'lishni ma'qul ko'rishgan.

Yozuvchi mo'g'ullarning urf-odatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Ularning yashash tarzi, odatlari, albatta o'troq, madaniylashgan xalqning tutumlariga mos emas edi. Masalan, mo'g'ullar oqar suvda yuvinishni qattiq gunoh hisoblashganidan ulardan doim sassiq va



badbo'y hid kelar edi. Bu o'rinda yozuvchi: "Yuvnib-taranib yurishni yaxshi ko'radigan boy savdogarlar badbo'y hiddan ko'ngillari ag'darilib, zo'rg'a chidab tutardilar", – deb yozadi.

Baliq va ov qushining go'shtini yeyish makruh deb bilganidan ularni tanovul qilmas edilar. Ammo jangda o'ta hiylakor edilar. Namatlardan o'n minglab odamlar yasab, ularni otga mingashtirib qo'yib lashkarlarni sarosimaga solish, yer ostidan lahm kovlab qarorgohlarni zabt etish, asira ayollarni yalang'och qatl qilib ko'chalar bo'yiga terib qo'yish ularning eng sinalgan qabih usullaridan edi. To'g'rilikni o'ziga shior qilgan, "askarchasiga harakat qiladigan" Inolchiq halol kurashni, ochiq jangni maqbul ko'radi. Ammo o'trorliklar yakka janglarda mardlik ko'rsatib nom qoldirishdan jamoa bilan birga jang qilib yengishni afzal bilgan mo'g'ullarning makr-xiylasi, qolaversa, o'z ichlaridan chiqqan sotqinlar, shuningdek, Xorazmshohning nodonlik bilan olib borgan siyosati, kaltabinlik bilan qabul qilgan qarorlarining qurboniga aylanadi.

Qissada Chingizxonning mohir sarkardalarga xos tadbirkorligi, har bir hodisaga jiddiy qarashi, noyob xotirasi, bilimdon va hiylakor hoqonligi badiiy detallar vositasida ochib berilgan. O'g'illari orasidagi kelishmovchiliklar ham haqqoniy ifodalangan. To'li va Chig'atoy orasidagi ziddiyat, To'lining o'g'li kichik Botudagi beshafqatlik, xushchaqchaq va ochiqko'ngil O'ktoy obrazlariga xos lashkarboshilik salohiyati, mardlik va shafqatsizlik, harbiy tadbirkorlik, bosqinchilik siyosati bor murakkabligi bilan ifodalangan.

Asarda o'trorliklarning kichik mag'lubiyati va ulkan fojiasigacha badiiy mantiq bilan asoslangan. Yozuvchi mag'lubiyat sabablarini ochib berar ekan, kitobxon qalbiga vatanparvarlik hissini singdira olish bilan asarning hayotiy kuchini ko'rsatib bera oldi. Bugungi avlod Mirkarim Osimning katta mehnati bilan bitilgan hajman ixcham, ammo mazmunida butun xalq taqdiri aks etgan asarlarini qiynalmay, tutilmay o'qiydi. "O'tror" Mirkarim Osim ijodidagina emas, o'zbek adabiyotida ham tarixiy qissachilikning eng yaxshi namunasi bo'lib qoldi.

Adibning mo'g'ul istilosiga qarshi kurashini aks ettirgan yana bir asari "Temur Malik" qissasidir. Asar "O'tror"dagidek batafsil tasvir, qarama-qarshi kuchlarning ziddiyatli tasviri, kuchli ruhiy dramatizmga boy bo'lmasa-da, Xo'jand hokimi Temur Malikning betakror shaxsiyati, tadbirli sarkardada, oqil siyosatchi, yovqur lashkarboshi sifatida xolis bahosini bera olgan asardir. Avvalboshdanoq Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Inolchiq boshchiligidagi yirik qo'shinni mag'lub qilishni reja qilgan Chingizxon Sulton va Jaloliddin Manguberdiga qarshi o'zi boshchiligida qo'shin tortadi. Inolchiq bilan kurashga o'g'illari Chig'atoy va O'ktoyni, Temur Malikka qarshi Uloq no'yon va So'ktu no'yon kabi harbiy amaldorlarini lashkarboshi qilib tayinlaydi. Garchi O'tror mustahkam qo'rg'on bo'lsa-da, Xo'jand undan kam emas, Temur Malikdek tajribali sarkarda qo'lida unga sadoqatli minglab jangchilar bor edi. Yozuvchi qissada Temur Malikka xos ulug'vor qiyofa, harbiy janglarda toblangan sarkardalik salohiyati, mard va jasur jangchi siymosini bor qirralari bilan tasvir etdi. Bir necha sahifani tashkil etgan kichik hajmli qissada Temur Malik shaxsiyati va ma'naviy olamiga oid chizgilar to'la aks etdi. Uning oylar davomida Xo'jandni himoya qilishi, harbiy taktika bilan mo'g'ullarga talofat yetkazishi va Jaloliddin qo'shiniga borib yetgunchalik davri qahramon shiddati va shijoatiga xos tarzda tasvirlandi. Daryo yo'lidagi to'siq zanjirni bir o'zi olib tashlashi, Jo'ji qo'ygan askarlarga daryodan hujum qilib, uni bartaraf etishi, Qizilqum ichidagi jang tafsilotlarida shu obrazga xos xususiyatlar namoyon bo'ldi. Keyinroq, Temur



Malik obrazi yoritilgan asarlar paydo bo'ldi. Ammo Mirkarim Osimning bu qissasi o'zbek adabiyotida Temur Malik obrazini ilk bor yoritgan asar sifatida alohida qiymatga ega.

Mirkarim Osim tarixiy qissalari orasida biografik materiallarga, ya'ni qahramonning shaxsiy hayotiga oid faktik materiallar tasviriga boy asarlari ham bor. "Jayhun ustida bulutlar qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning hayotiy faoliyatini yoritisa, "Zulmat ichra nur" asarida Alisher Navoiy hayoti to'la qamrab olinadi. "Jayxun ustida bulutlar" qissasi Beruniyning 1000-yilligiga bag'ishlanib 1973-yilda yozildi. Asarda yosh Beruniyning bolalik davridan, ya'ni afriq'iyalar sulolosi vakili Xorazmshoh Abu Abdulloning amakivachchasi Abu Nasr Iroq qo'liga shogird bo'lib kelganidan toki Mahmud G'aznaviy saroyida o'tkazgan taxlikali, ammo serunum ilmiy faoliyatigacha bo'lgan umrini hikoya qiladi. Allomaning hayoti xorazmshohlar, somoniylar va g'aznaviylar sulolasining talatumlari orasida kechdi. Ammo bu siyosiy tahlikalar uning yetuk olim bo'lishiga mone'lik qila olmadi. Beruniydagi o'tkir salohiyat, noyob iqtidor hamma sulola vakillarining Beruniydek olimga egalik hissini oshirgan esa-da, chinakam ilm kishisi o'tkinchi mayllarga bo'ysunmadi, o'zining buyuk maqsadidan og'ishmadi. Ana shu maqsad yo'lidagi intilish, pirovardida, uning jahonshumul hodisalar kashfiyotchisiga aylantirdi. Asar voqealari yosh Beruniyning sarguzashtlarga to'la, goh xazin va mungli, goh farahbaxsh onlarga muzayyan hayoti zahirida favqulodda iste'dodi, kuchli quvvai xofizasi yotganiga ishonitiradi. Olimlik belgisini namoyon qilgan o'nlab lavhalar o'qiganingizda bunday iqtidor egasi bo'lgan allomaning yurtdoshimiz bo'lganidan faxrlanamiz. O'tinchilik bilan kun o'tkazadigan o'n-o'n bir yoshli yetim bolakay taqdirning inoyati, o'zidagi noyob iqtidor va ma'rifatpesha olim Abu Nasr Iroqday mamlakatning nufuzli odami nazariga tushgan kundan boshlab uning jo'shqin ilmiy faoliyatga to'la hayoti boshlandi. Alloh ato etgan ne'matlar orasida ilmgina insonni ulug'likka yetkazadi. Beruniy ham tinimsiz ijod, maqsad yo'lidagi sobitlik va ayniqsa, chin insoniy fazilatlarini bois tarix sahnasiga ko'tarildi. O'z nomi bilan barobar o'lkasi va millatining nomini ham dunyoga mashhur qildi.

Yozuvchi Muhammadning bolaligidagi voqealarga ataylab urg'u beradi. Zero, buyuk kashfiyotlarning paydo bo'lishi tasodifiy emas, ularga bolalik olami va bola qalbi bilan yetib boriladi. Beruniy bolaligidan juda ziyrak edi. O'tin terib yurgan mahallarida cho'ldan o't-o'lanlar terib yunonlarga sotar edi. Shuning uchun u dorivor giyohlarning otini va yunoncha nomlarini ham bilib olgan edi. Giyohlarni bir-biridan farqlay olishi va yunon tilida o'tlarning nomini sanab berishi Ibn Iroqning Muhammadga e'tiborini oshirdi:

"Ustod uning qo'lidagi bir o'tni barmog'i bilan ko'rsatib: – Bu nima? – deb so'radi.

- Olabo'ta. Yunonchasi "Ram-ram".
- Bu-chi?
- Za'far. "Anixus".
- Ie, sen bularning nomini qayoqdan bilasan?
- O'shal yunoniy o'rgatgan. Qo'ziqorinni "futr" deyishadi.
- Borakallo. Keyinroq dorivor giyohlar xosiyatini o'rgatadurgan bir tabibga seni shogird qilib berurmiz. Hozircha arab tili, ilmi hisob va handasani o'rganib ol". O'z davrida yunon tilidagi asarlarni o'zga tillar vositasida o'qiyotgan olim uchun oddiy bir bolaning narsa nomlarini yunon tilida bayon qilishi kutilmagan bir hol edi. Yozuvchi Beruniydagi hamma ham e'tibor qilmaydigan o'ziga xos fazilatlarini oddiy hodisalar misolida tasvirlar ekan, dunyo arenasiga bolalikning beg'ubor olamidani ko'tarilib borishiga ishonitiradi.



Abu Nasr Mansur ibn Iroq “Batlimusi soniy” (Ikkinchi Ptolomey) nomini olgan xorazmlik matematik va astronom, Abu Rayhon Beruniy hayotida tengsiz o‘ringa ega shaxs edi. Davrining yetuk faylasufi bo‘lgan Abu Nasr o‘z kutubxonasini Bag‘dod va Shomdan keltirilgan yunon faylasuflari va tabiatshunoslarining arab tiliga tarjima qilingan kitoblari bilan boyitgan edi. Falsafa va yulduzlar olami bilan shug‘ullanuvchi bu olim yerdagi ishlarini ham unutmas, ilm va san‘at ahliga homiylik qilar, turli mamlakatlardagi olimlar, o‘z yurtidagi iste‘dodli yoshlarni ham atrofiga chorlab, katta ilmiy-ma‘rifiy muhit tashkil qilgan edi. Beruniy dastavval Qur‘onni tutilmay o‘qiy olishi bilan olimning e‘tiborini tortgan bo‘lsa sal o‘tmay, hisob (matematika) va handasa (geometriya), arab tili, tibbiyot, falsafa, mantiq, falak ilmi va jo‘g‘rofiya kabi fanlarni chuqur o‘zlashtirishi bilan hayratda qoldirdi. Hatto yunon olimlarining asarlarini ham tezda o‘zlashtirib oldi. Yigirma bir yoshida Batlimus o‘z kitoblarida o‘rgatgan yo‘llar bilan globus, turli usturloblar va burchaklarni o‘lchaydigan asboblarni yasay olishi bilan mamlakat olimlarning nazariga tushdi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyatlar tufayli goh Ray, goh Jurjon², goh Gurganjda yashashga majbur bo‘lgan Beruniy Mahmud G‘aznaviy tufayli umrining katta qismini G‘aznada o‘tkazdi. Ilm-fanga katta hissa qo‘shgan olimdan bizgacha “Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”), “Geodeziya”, “Hindiston”, Mineralogiya”, “Saydona” kabi yirik fundamental asarlari, o‘nlab ilm-fanga oid risolalari, 160 dan ortiq tarjimalari, fanning o‘ndan ortiq tarmog‘idagi muhim ilmiy ahamiyat kasb etuvchi kitoblari meros bo‘lib qoldi.

Mirkarim Osim qissada uning ilmdagi zahmatini batafsil bayon qilmadi, aksincha uning odamlilik qiyofasini ochib berishga intildi. Shu bois Beruniy obrazi qalbi ma‘rifat nuri bilan yoritilgan chin inson, sadoqatli shogird, fidoyi olim, shogirparvar ustoz, hammaslak, hamfikir do‘st qiyofasida namoyon bo‘ldi. Asarni o‘qir ekansiz, ustoz va shogird munosabatlaridagi samimiylik, o‘zaro hurmat, ustozga buyuk ehtirom, shogirdga farzandidek munosabatda bo‘lish, bir-birini ota va bolalardek avaylab asrash kabi ezgu qadriyatning Beruniy va Abu Nasr timsolida tajassum topganini kuzatasiz. Mirkarim Osim bu ikki olim suhbatlariga ko‘p urg‘u berar ekan, ularning chin ma‘nodagi hammaslak, hamfikir ekanliklarini birgalikda kechgan ilmiy mubohasalar, sarhad bilmas tafakkur kengliklaridagi sayohatlari bilan namoyish qila oldi. Ilm ular orasidagi ijtimoiy tengsizlikka barham berdi. Abu Nasr uni o‘z o‘g‘liday ko‘rdi, Beruniy ham ustoziga munosib javob bera oldi.

“Zulmat ichra nur” qissasi Alisher Navoiy hayotini katta-yu kichikni birday hayajonga soladigan asar. Bu tarixiy shaxs hayotini yoritish bobida ijodi davomida ancha boy tajriba to‘plagan Mirkarim Osim tarixiy voqelikni jonlantirdi, unga jilo berdi, Navoiy haqidagi barcha asarlarni bir butun holga keltirdi. Darhaqiqat, tarixiy mavzularda badiiy asar yozishni o‘tgan asrning qirqinchi yillaridan boshlagan adib dastavval Alisher Navoiyning 500-yillik yubileyiga o‘lka bo‘ylab qizg‘in tayyorgarlik ketayotgan bir davrda, u haqda bir qator asarlarni nashrga tayyorladi. Shu tariqa Mirkarim Osimning “Astrobod” (1940), “Alisher Navoiy va Darveshali”(1941) nomli tarixiy qissalari “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” jurnallarida, Alisherning yoshligi, “Badarg‘a” hikoyalari 1941-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida bosildi. “Navoiyning xislatlari”, Shoirning yoshligi”, “Ulug‘bek va Navoiy” kabi tarixiy hikoya va

² Beruniy Jurjonda Qobus saroyida yashagan. Uning saroyida “Osorul boqiya” asarini yozib tugatgan. Qobus ibn Vushmagir Unsurlmaoliy Kaykovusning bobosi bo‘lgan. Kaykovus o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlagan “Qobusnoma” asari bilan mashhur.



ocherklari Alisher Navoiy dahosiga yosh adibning katta ehtiromini ko'rsatar edi. Ayni vaqtda Mirkarim Osim o'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning badiiy obrazini epik planda birinchi marta boshlab berdi. O'z davrida maktab darsliklariga kiritilgan Navoiy siymosi bilan o'quvchilar Mirkarim Osim hikoyalari orqali tanishdilar.

1963-yili "Zulmat ichra nur" nomi bilan qissa yaratildi. 1968-yil Mirkarim Osimning "Sehrli so'z" deb nomlangan buyuk ijodkor hayotining turli nuqtalarini yorituvchi turkum hikoyalari nashr etildi. Bu hikoyalar qissa tarkibida ham mavjud edi. Qissa 1968-yilda rus tiliga tarjima qilindi. Qissa – tarixiy biografik asar. Bunday asarning o'ziga xos muhim jihati shuki, o'zi tanlangan qahramonning hayoti va ijodiy faolitini xronologik bayon etishdan tashqari davrning ruhini bera olish muhimdir.

"Zulmat ichra nur" qissasi sarlavhasining nomlanishida o'sha davrning nafasi sezilib tursa ham, XV asrning ijtimoiy va siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy hayoti o'laroq Navoiydek ulkan bir shaxs kamolga yetganini inkor qilib bo'lmaydi. Har holda Navoiy fenomenining yuzaga kelishi zulmat bag'rida ro'y bermasligi bugun sir emas. Ammo yozuvchi bir qadar xira sarlavha ostida ham Alisher Navoiy hayotining nurli qirralarini jilolantira oldi. Qissaning muayyan sarlavhalarga ega hikoyalar tarzida berilishi ulug' allomaning hayotining katta-yu kichik tomonidan birday tushunilishi va asarning oson o'qilishini ta'minlash uchun qulay usul edi. Garchi qissa alohida mustaqil syujetlarga egadek ko'rinsa ham, ularni Navoiy siymosi tutashtirib yaxlit chiziqqa marjondek tizadi. Shuning uchun asar ravon o'qiladi. Qolaversa, asarning shirali va jozibali tili, o'ziga xos bayon uslubi asar badiiyatining yutug'ini ta'min etgan.

Qissada Navoiyning bolalik lavhalarida Alisherning o'ziga xos qiyofasi ko'rinib boradi. Yazd cho'lining Taft qishlog'ida Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashish sahnasi Alisher Navoiyga bag'ishlangan ko'plab badiiy asarlarda tilga olinadi. Yozuvchi yosh Alisherni bu ulug' mutafakkir bilan uchrashtirar ekan, uning gap-so'zlariga, siyosiy voqealarga bolalarcha baho berishiga, shuningdek, kattalarning duosidagi hikmatga alohida e'tibor beradi. Bolaligidanoq tengdoshlaridan yetakchiligi bilan ajralib turgan Alisher jur'atli va vaziyatga to'g'ri baho berishi bilan ham farqlanib turadi:

"Sho'x Alisher ertalab turib, o'z o'rtoqlarini boshlab ko'chaga chiqdi. Karvonsaroyning yonida katta bir xonaqoh bor edi. Bolalar ikki tavaqasi lang ochiq darvozadan kirishdi. Xonaqoh hovlisining bir chekkasida keksa odam ko'zini yumib, pichirlab o'tirardi.

- Yuringlar, o'shul quduqning charxini aylantirurmiz, – dedi Alisher ko'zlarini chaqnatib.
- Yo'q, anovi kishi koyib beradur.
- Urishmaydur ul kishi, o'zi yuvosh odamga o'xshaydur.

Bolalar qo'raning o'rtasiga kelib, quduqning yonida to'xtashdi. Burchakda o'tirgan kishi ko'zlarini ochib, ularga maroq bilan qaradi va:

- Hoy bolalar, bu yoqqa kelinglar, – dedi kulib.

Bolalar bir narsadan hurkigan jayronlardek duv etib, o'zlarini darvoza tomon urdilar. Faqat Alisher qo'rqmay, cholning oldiga borib salom berdi.

- Vaalaykum assalom, Katta bo'ling! Sizlar bizning qishloq bolalariga o'xshamaysizlar. Qoydin keldinglar?

- Hirotdin. Iroqqa ko'chib ketayotirmiz, – dedi Alisher cholning ko'kragiga tushgan oppoq soqoliga qarab.

- Nega ko'chib ketayotirsiz?



- Ie, gapdan xabaringiz yo‘qmi? Xurosonda urush boshlanib ketdi-ku. Podshohzodalar bir-birlarining kallasini kesmoqda, yurtni talamoqda, mundog‘ zamonda...
- Chol og‘zini ochib, o‘ng qo‘lini qulog‘iga qo‘yib, Alisherning gapiga quloq soldi.
- Mabodo telba Mironshohning merosxo‘rlaridin biri taxtga o‘tirsam bormi, naq kallamiz ketadur-a...
- Chol qiqirlab kulib yubordi.
- Ne sababdin?
- Bizlar Boyqaroga xizmat qilib kelganmiz. Boyqarolar Mironshoh avlodi bilan it-mushuk.
- Rost aytding bolam. Farosatli ekansan. Bobongning ismi nedur?
- G‘iyosiddin, laqabi Kichkina bahodir.
- Ofarin, ul kishini taniydurmen. Shohruh vafotidin besh-olti yil avval Sabzavorda hokim erdi. Ul kishini bilurmen. Xo‘sh, o‘zing maktabga borurmusen?
- Ha, taqsir. Men to‘rt yosh-u to‘rt oylik bo‘lg‘onimda ota-onam maktabga eltib berganlar. Hozir taborak surasiga tushdim.
- Borakallo. Bul jamoat bolalaridin biz choqirg‘onda sen kelib, men bila oshno bo‘lding. Kel, sening uchun fотиha o‘qoli...”

Mirkarim Osimning atoqli qahramonlariga ulug‘larning duosi va nazari, homiyligi xususida talay faktlar uchraydi. Masalan Yazdiyning Alisherga bergan duosi, Beruniyning Abu Nasr tomonidan himoyaga olinishi, Ibn Sinoga Mahmud Massohning nazari tushishi kelajak davomchilariga berilgan o‘ziga xos e‘tibor edi.

Mirkarim Osim ulug‘ allomalarning bolaligiga bag‘ishlangan lavhalarda ularning kitobxonligiga urg‘u beradi. Ibn Sino, Navoiyning kitobxonligi qissalarda hatto maxsus sarlavhalar ostida bayon etilgan. “Jayhun ustida bulutlar”da Beruniyning ibn Iroq qo‘lidan maxsus taxsil olishi, qisqa muddatda ko‘plab ma‘lumotlarni o‘zlashtirishi ularning oddiy o‘quvchi emas, kitobxon bolalar bo‘lganini ko‘rsatadi. Mirkarim Osim asarlarining bolalarbop bo‘lishining yana bir jihati muallifning kitob va kitobxonlikka urg‘u berishi, bolalikdan kitobga mehr qo‘yish ularning nurli kelajagiga poydevor bo‘lishini ta‘kidlashi bilan ham belgilanadi.

Adabiyotimizda Alisher Navoiy hayotini yorituvchi o‘nlab badiiy asarlar, Navoiy falsafasi va tafakkuriga jiddiy urg‘u berilgan romanlar mavjud. Ular orasida Lidiya Batning “Hayot bo‘stoni”, Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur”, Oybekning “Alisherning yoshligi” qissalari o‘zbek bolalar tarixiy qissalari xazinasiga qo‘shilgan munosib asarlardir. O‘zbek adabiyotida Navoiy obrazini ilk marta badiiy gavalantirgan Mirkarim Osim qissani yaratishgacha o‘nlab asarlar yozgan edi. Tabiiyki ulrning hammasi qissaga hamirturush bo‘lib xizmat qildi. Yozuvchi Alisher Navoiyning barcha asarlarini sinchiklab o‘rgangan, tarixiy materiallarni ham chuqur bilgan. Shuning uchun qissada boshqa ijodkorlarda uchrayvermaydigan qiziqarli faktlar ham mavjud. Asarda Navoiyning do‘sti Pahlavon Muhammad, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Zayniddin Vosifiy, Tabriz hokimi Ya‘qubbek, Muhammad Naqqosh, Xoja Dehdor kabi tarixiy shaxslar bilan bog‘liq lavhalar asarning qiziqarli bo‘lishini ta‘minlagan. Mirkarim Osim tasvirning tiniqligi va jonliligi, vaziyatni to‘g‘ri ko‘ra olish va baholash kuchini qissada yana bir bor namoyish etdi. Shu tufayli qissa qariyb oltmish yildan buyon o‘quvchilarga ma‘naviy saboq, zavq va jo‘shqinlik ulashuvchi asar sifatida yashab kelmoqda.

Mirkarim Osim bilan Hadrada ochilgan maktabda bir sinfda o‘qigan adabiyotshunos olim Homil Yoqubov shunday yozadi: “O‘sha yillardayoq u xalqimiz tarixiga u



katta qiziqish bilan qarar edi. Yodimda, o'qituvchimiz Shiroq va To'maris ko'rsatgan jasorat haqida so'zlab berdi. Tanaffus vaqtida Mirkarim darsdan qattiq ta'sirlanganini aytib qoldi[4.75.]. Mana shu kuchli ta'sirlanish uning tarixiy mavzularda qalam tebratishga undadi. "To'maris" qissasiga asos voqea Gerodotning "Tarix" kitobiga kiritilgani o'quvchilarga maktab darsliklaridan ma'lum. Shu davr tarixchilari Strabon va Ktesiylar ham bu voqeani qisqa eslab o'tishgan. Tomiris (To'maris) tarixi deyarli hamma antik adiblari asarlarida bir oz o'zgartirilgan holda berilgan. To'maris boshchiligidagi massaget qabilalarining mardligidan hikoya qiladigan bu asar o'tmishning shonli lavhalarini ko'z oldimizda jonlantiradi. Asarda To'maris boshliq lashkarlarning Eron shohi Kayxisrav (Kir)ga qarshi mardonavor kurashi aks ettirilgan.

Qissada bir qator tarixiy shaxslar va joy nomlarining mavjudligi yozuvchining tarixni buzmay ko'rsatishga intilganidan dalolat beradi. To'maris – massaget qabilasining hukmdori. Massagetlar Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida miloddan avvalgi 8–4 asrlarda yashagan qabilalar uyushmasi. Massagetlar qabilasi, uning tarixiy kitoblardagi turli xil versiyalari, Gerodotning "Tarix" kitobi orqali To'maris obrazining Yevropa adabiyotiga o'tishi, hatto Dante va Shekspir asarlarida skiflar malikasi Tomiris haqida bayon etilishi, uning nomi bilan qasam ichish motivlari aynan ajdodimiz bo'lgan To'maris nomi bilan bog'liq ekanligi haqidagi tarixiy ma'lumotlar, shuningdek, To'maris so'zining etimologiyasi va bu nomning bir-biriga yondosh xalq orasida turli nomlar bilan atalgani haqida Fozila Sulaymonova "Sharq va G'arb" asarida batafsil bayon etgan[5.88]. Kayxisrav – (Kir, Kurush) – qadimgi Eron shohi (miloddan avvalgi 558-530). Ahamoniylar davlati asoschisi. Miloddan avvalgi 530-yilda katta qo'shin bilan Markaziy Osiyoga hujum qilgan va massagetlar ittifoqining hukmdori To'maris bilan bo'lgan jangda o'ldirilgan.

Asar to'y voqeasi – To'marisning o'g'li Sparangizning shak qabilasining qizi Zarinaga uylanishi tasviridan boshlanadi. Yozuvchi o'sha davrni haqqoniy gavdalantirar ekan, cho'l manzarasi, portret va joy tasvirlarida shu davrga xos chizgilarni berishga intilgan. Mirkarim Osim tabiat tasvirini inson taqdiriga uyg'unlashtira oladigan, aniqrog'i, tabiat tasvirini ham asar g'oyasiga bo'ysundira oladigan yozuvchi. Qissa "cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast. Allaqanday uzun oyoqli qushlar o'tlar orasida dumlarini likkillatib, katta-katta bosib yuradi, toshbaqalar burishib ketgan xunuk bo'yinlarini o'tlarga cho'zadi, qo'ng'izlar esa orqalariga qarab yurib, tezakdan yasagan qumaloqlarini allaqayoqqa yumalatadi. Qizg'ish-qo'ng'ir bir ilon o't orasidan o'rmalab kelib, atrofni tomosha qilayotgandek qaqqayib qolgan yumronqoziqqa tashlanadi, qushlarga o'xshab chirqillab turgan kaltakesaklar qo'rqib ketib oyoqlari bilan qumloq yerni ikki yonlariga chiqarib, tuproq ostiga yashirinadi. Ba'zan ovullar yaqinidan ko'kraklari oppoq sayg'oqlar gala-gala bo'lib chopib o'tadi, yer gumburlab ketadi" kabi tabiatning fusunkor tasviri bilan boshlanadi. Cho'lga xos tabiiy manzarada to'y tashvishi bilan yelib yugurayotgan qavmning xursandchiligi ham qaysidir ma'noda aks etgan. Ammo kutilmaganda ilonning paydo bo'lib, hamma jonzo'tning tinchini buzganiday, ko'klam ham Kayxisravning massagetlarga hujumi natijasida go'zalligini yo'qotdi. Yozuvchi To'maris bilan bog'liq qisqa tarixiy ma'lumotni badiiyat mantig'iga bo'ysundirib, yangi badiiy asar yarata oldi. Asardagi har bir detal muayyan lavhalarga birikib, hodisalarni umumlashtirishga, yaxlit voqeani jonlantirishga xizmat qilgan. Qissadagi to'y bilan bog'liq marosimlar, Eron elchisining kutib olinishi, Sparangizning asir



olinishi, nihoyat, Kayxisravning yengilib, boshi qonga botirilishigacha yozuvchi ana shu mantiqqa to'la rioya qilgan.

Adib massagetlar davrini jonlantirishda o'sha davrga xos madaniyat belgilarini bera oldi. Bu holat tabiat tasviri, portret chizgisi, o'zaro muloqotdan tortib tafakkur kengliklarigacha ifodasini topdi. Shakllarning uchi ingichka namat qalpoq kiyishi, mezbonlarning qo'y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go'sht, meshlarda qimiz keltirishlarida dasht va yaylovda, cho'lli hududlarda yashayotgan odamlarning turmush manzarasi jonlantirilgan. Eron elchisining kutib olinishi bilan bog'liq sahnaga xosliklar – sholcha ustiga tashlangan yo'lbars terisiga elchining taklif qilinishi, qolgan mulozimlarning qator qilib solingan po'staklarga o'tirishi, mehmon odiga charm supraning yoyilib, unga turli hil kaboblar keltirilishi va nihoyat, elchining oldida o'tirgan To'marisning uni ovqatga manzirat qilib, u bilan birga ovqat yeyishida o'sha davrga xos turmush tarzini kuzatish mumkin. Tabiiyki, xon saroylaridagi urf-odatlariga ko'nikkan elchiga To'maris boshliq massagetlarning hayoti ibtidoiy ko'rinadi. "Shuyam malika bo'ldi-yu..." deb xayolga kelishi tabiiy tuyuladi. Maqsadini amalga oshirish uchun sovchi bo'lib kelganini eshitgan To'marisning javobi qadimdan erk va ozodlik tushunchasini hayotining bosh maqsadiga aylantirgan ajdodlarimizning ulug'vor qiyofasini ko'z oldimizda gavdalandiradi. "Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir... Men unga qalliq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman". Erkinlikni qullika alishtirmaslik uchun jangga kirishgan massagetlar tabiatiga xos to'g'rilik bilan Kir qo'shinlarining O'kuzdan bu yoqqa o'tib olishlariga imkon bergan bo'lsa, Kir nomardlik qilib uning o'g'li Sparangizni makr bilan tuzoqqa tushirdi. Yozuvchi ikki mamlakatning hukmdorlari orasidagi tafovutlarni ularning yashash tarzi, urf-odati va tafakkuridagi o'zgarishlargacha birma-bir ko'rsatadi. Yosh va tajribasizligi tufayli dushmanga asir tushgan, ammo, To'marisga munosib o'g'il ekanligini o'limi bilan isbotlay olgan Sparangiz raqib sardorida ham katta taassurot qoldiradi: "Mard yigit ekan, dedi Kayxisrav bir ozdan keyin. – O'limni nomusdan afzal ko'rdi. O'lmaganda, ehtimol, ulug' sarkarda bo'lar edi". Ha, urush hech qanday tartibotlarni tan olmaydi. Ayol hukmdorga qarshi kurashni o'ziga ep ko'rgan, To'maris bergan imkondan zarracha uyalmasdan foydalanib, yana uning yolg'iz o'g'lini sharmandalali usul bilan asir olgan Kayxisrav har qancha kuchli bo'lmasin, makkor va xiylakor inson. Sparangiz tomonidan "arslon terisini yopingan tulkilar" deyilgan gap bosqinchiga berilgan haqqoniy baho edi.

Mirkarim Osim qahramonlari portretiga alohida e'tibor qaratadigan yozuvchi. U har bir detal va chizgiga mazmun singdiradi – qahramon xarakterining u yoki bu qirrasini namoyon qiladi. Masalan, "bo'ychan, bug'doyrang, sochlari timqora, ko'zlari chaqnab turgan" Zarinada sahroyi go'zallik jilvalansa, kurashda kuyovni chirpirak qilib uloqtirib yuborishida uning jaydari tabiati ham aks etadi. Qadriyatlarining asarlar davomida saqlanib qolishi millatning mavjudligi belgilaridan biridir. Shu ma'noda kurashdan yengilganidan so'ng itoatkor bo'lib qolgan kelin Zarinaning er yonida odob saqlab, uning so'zlariga quloq tutib o'tirishi tasviri o'zbek oilasi uchun yaxshi bir qadriyat o'laroq saqlanib qolganini kitobxon tez anglaydi.

To'maris – cho'l malikasi. Muallif uning qirq yoshlar atrofida chiroyligina bir ayol bo'lganini aytadi. Uning "belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushishi" tasviri o'sha davr ayollariga xos jangarilikni bildiradi. Darhaqiqat, tarixiy manbalar Markaziy Osiyoning qadimgi ajdodlari bo'lgan saklar va massaget ayollarining jangovar harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgani, keyinroq amazonka nomi bilan nomi bian mashhur



bo'lgan jangchilar ham ayni mana shu hududdagi ayollar ekani haqida ma'lumotlar beradi. Amazonkalar – janogovar ayollardir. Amazonkalar malikasi turli asarlarda Tomiris, Tomiranda, Samir, Sammurat, Semiramida, Tomir nomlari bilan ham atalgan. Hatto Tamara ismi ham Tomiris ismining o'zgargan varianti sifatida qabul qilinadi[5.88]. To'marisga xos jo'mardlik, tantilik uning Kir qo'shinlariga o'z hududiga o'tib olishlariga imkon berishida yana bir marta namoyon bo'ladi. Ayol bo'lishiga qaramay makr-hiyla ishlatishni o'ziga or deb bilishi, raqibini mardlik bilan kutib olishi, o'g'lining o'limidan keyin ham o'zini yo'qotmay dadid jangga o'tlanishi turkiy momolarimizning keyingi avlodlari bo'lgan Bo'pay xonim, Qurmonjon dodxoh³ kabi ulug' onalarimizga ma'naviy kuch ato etgan bo'lsa ajab emas.

O'g'lining o'limidan so'ngsiz ruhiy azobda qolgan To'maris holati "Qayg'uning zo'ridan yig'lay olmasdi" jumlasiga yuklandi. Mana bu ruhiy og'riq To'marisning jang-u jadallarda qotib ketgan jangchi qiyofasidan farzand dog'ini ko'tara olmayotgan onaning mungli siymosiga o'zgartirdi. Ma'lum bo'ladiki, ota-ona uchun farzand dog'i eng alamli og'riqdir. Bu alamni To'maris faqatgina dushmandan o'ch olish bilan bosish mumkin edi.

To'maris obrazida har bir ishni kengash bilan yuritadigan dono va aqlli hukmdor, hammani o'ziga teng ko'radigan bag'rikeng boshqaruvchi, xatolarini tan ola biladigan mard va yovqur sarkarda qiyofasi umumlashib ketgan. U o'g'lining xiyla bilan o'lishini o'zining sha'niga tushgan isnod deb biladi. Shuning uchun "shu ketganimizcha, yo hammamiz bitta qolguncha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz yoki dushmanni qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz", – deb aytadi. Birinchi to'qnashishdayoq halok bo'lgan Kirning o'limidan so'ng Eron qo'shinlari ham asir tushishdi. Kirning boshi qon to'latilgan meshga solindi.

To'maris voqealaridan keyin Eronga podsholik qilgan Doro I (Darayavush (Doro I) – Eron shohi (miloddan avvalgi 522-486-yillar). Miloddan avvalgi 522-521-yillarda So'g'diyani istilo qilgan)ga qarshi kurash qahramoni eramizning II asrida yashagan tarixchi Poliyenning "Harbiy xiylalar" asarida tasvirlangan Shiroq haqidagi voqeadir. Doroning yurtga bostirib kelishi shak qabilasini ancha tashvishga qo'yadi. O'z qulog'i va burnini kesib yarador qilgan cho'pon Shiroqning xiyla bilan Doro qo'shinlarini yengishi haqidagi voqea Mirkarim Osim ijodida qayta ishlanib, qahramonlarning chuqur ruhiy olamini ochib beruvchi, keskin dramalarga boy, vatanparvar yurtdoshlarimizning jasorati va shijoatini ulug'lovchi badiiy asarga aylandi. "Shiroq" qissasi yaksart bo'ylarida umr kechirgan sak qabilalari haqida hikoya qiladi. Shaklar (saklar, skiflar) miloddan avvalgi birinchi ming yillik va milod boshlarida Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Sharqiy Turkiston shimoli sharqiy hududlarida yashab chorvadorlik, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullangan qabilalar uyushmasi. Dunyo tarixida skiflar nomi bilan mashhur. "Harbiy xiylalar"da sak-massagetlar haqidagi ikkita hikoya beriladi. Birinchisida, qabilalar birlashib, bosqinchilarga qarshi kurashadilar. Ular uch guruhga bo'linib

³Bopay xonim (1690/1695 – 1780) – Abulxayrxonning suyukli rafiqasi, davlat boshqaruvida qatnashgan jamoat arbobi va diplomat. Bopay Xonimning o'zi xalq yig'ilishlarida so'zga chiqib, [Qozog' xonligining](#) ichki va tashqi siyosatini belgilab beruvchi masalalarni hal etishda, taniqli so'z ustalari, xalq huquqi mutaxassislari bilan notiqlik bellashuvlarida qatnashgan. Xon onasi nomi bilan mashhur bo'lgan.

Qurbonjon dodxoh (1811-1907) – Oloy malikasi nomi bilan mashhur bo'lgan. O'sh yaqinidagi Modi qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qon xonligi vaziri Olimbek dodxohning rafiqasi. Dovyurakligi tufayli Amir Muzaffarxon unga dodxoh unvonini bergan. Oloy vohasidagi ichki boshqaruvda o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Uning dovrug'i Sankt-Peterburgdagi imperator saroyigacha yetib borgan.



jang qiladilar, bundan o'z niyatida foydalangan Doro birinchi guruhni yenggach, xiyla bilan o'z askarlariga saklarning kiyimlarini kiydiradi. Natijada aralashib ketgan ikkinchi guruh sak-massagetlar yengiladi. Uchinchi guruhni asir olishadi. Ikkinchi hikoyada esa oddiy otboqar Sirak dushman lashkarini bir o'zi yengishi haqida qabila boshliqlari Saksfar, Omarg va Oamirislarga murojaat etadi va o'zining a'zolarini kechib yarador holga kelgach Doro qo'shinlarini cho'lning yetti kunlik masofasigacha yetaklab keladi va ularni yengadi o'zi ham o'ldiriladi[5.92.]. Agar birinchi ma'lumotda Doro xiyla tufayli saklarni yenggan bo'lsa, ikkinchisida o'zi xiylaning asiriga aylanadi. Keyingi ma'lumot Mirkarim Osimning "Shiroq" asari uchun asos bo'lgan. Yozuvchi antik tarixchilarning mavjud ma'lumotlarini o'zgartirmay, xalqimizning udumlari, yurtimizning tabiiy manzarasi, ajdodlarimizning yashash tarzi, orzu-umidlari tasvirini badiiy bo'yoqlar bilan ifodaladi. Miloddan avvalgi hodisalarni jonlantirib qadim vatanparvarlik solnomalaridan kitobxonni bahramand etdi. Shu bilan barobar o'zi ham millat tarixini qayta jonlantirgan adib sifatida adabiyot sahnasida manguликka o'rin oldi.

Qissa tarixiy ma'lumotlarga mos ravishda yoz faslining jazirama kunlarida Yaksart (Sirdaryo) bo'ylarida bo'lib o'tadi. Eron shohi Darayavushning O'kuzdan o'tib So'g'dni istilo ilishi va shak qabilalariga hujum qilishi qabila oqsoqollarini maslahat kengashi o'tkazishga majbur qiladi. Asar qahramoni Rustakning "Biz mardlik ko'rsatib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday saqlab qolish to'g'risida o'ylamog'imiz kerak", – degan fikrlari ajdodlarimiz tushunchasida erk va ozodlik shaxsiy mayllardan baland ekanligini anglatuvchi tushunchalar bo'lganini ko'rsatadi. Dushmanga qarshi kurash muammosi qabilaning oddiy cho'poni Shiroq tomonidan hal etiladi. Xalq hayotini o'z hayotidan ustun qo'ygan qahramonlar tarixda har doim ham uchrayvermaydi. Bunday qahramonlarni bir umumiy qadriyat – vatanparvarlik tuyg'usi birlashtirib turadi. Xalq tarixi va adabiyoti chashmalaridan qongan qalbgina shunday jasorat ko'rsatishga loyiq. Xalq og'zaki ijodining bilimdoni, mashhur dostonchi Shiroqni qo'biz chalib aytgan dostonlaridagi sheryurak qahramonlari og'ir pallalarda elini qutqarishga undadi. O'kuz va Yaksart o'rtasidagi serunum yerlarni bosib olishni xayol qilgan Doro Shiroqning aytgan gaplariga ishonadi. Uni o'zlariga yo'l boshchi qilib olishdi. Yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo'lga tushdilar. Nihoyat, poyonsiz cho'lning o'rtasida ular aldanganini bildilar. Yozuvchi shu holni quyidagicha tasvirlaydi: Shiroqni o'rtaga olib: "Bizni qayerga boshlab kelding, ablah! – deb qisti-bastiga oldilar. Askarboshilardan biri uning yoqasidan siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib, namat qalpog'ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshonasining terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqna ketdi. Atrofini qurshab olgan g'azabli chehralarga mag'rur qarab turib, qalpog'ini yerga bir urdi-da, qahqahlab kulib yubordi:

– Men yengdim, Doro qo'shini bir o'zim yengdim! – dedi u qichqirib". Dushmanni halokat jari yoqasiga yetaklab kelgan Shiroq o'zi va qabiladoshlari oldidagi ulug' burchini ado etdi. Undagi muazzam tuyg'u sarbaland avlodlari qonida ham zuhur topdi. Bosqinchilarning qayta-qayta istilosiga bosh egmay kurashgan ajdodlarimiz ham Shiroqning vatanparvarligidan ulgi olgan bo'lsa ajab emas.

Yangi o'zbek adabiyotida hali hech bir ijodkor Mirkarim Osimday tarixiy qahramonlarga ko'p murojaat qilgan emas. Tarix qatidan o'zligini topgan, o'z tasvirlagan shaxslar taqdirida o'z taqdirini ko'ra olgan, tarixni zamonga tutashtira olgan yozuvchi asarlari mard va yovqur,



vatanparvar va yurtparvar yoshlarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy kuch bo'lib xizmat etaveradi.

References:

1. Sattorov M. Moziy saboqlari. Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida. Saylanma. So'zboshi muallifi: filologiya fanlari kandidati Mahmud Sattorov. To'plovchi va izohlar muallifi: tarix fanlari kandidati Naim Norqulov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 – 524 b.
2. Мирвалиев С. Миркарим Осим. Ўзбек адаблари. – Тошкент: Фан, 1993. Б. 58-60 б
3. Ғафуров И. Асарлар / Адабиёт дунёси: саккиз жилдлик. Еттинчи жилд. Паривашлар мажлиси: мансуралар, ҳикоялар, бадиалар (эсселар). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. 416 б.
4. Yoqubov N. Hamisha qalbimizda. Mirkarim Osim. Zulmat va muhabbat nuri. Toshkent tarixidan ikki qissa. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. b.
5. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб (Қадимий давр ва ўрта асрлар маданий алоқаси). – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 414 б.
6. Осим, Миркарим. Карвон йўлларида. Сайланма. / Сўзбоши муаллифи филология фанлари кандидати Маҳмуд Сатторов. Тўпловчи ва изоҳлар муаллифи тарих фанлари кандидати Наим Норқулов / – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 524 б.
7. Осим, Миркарим. Зулмат ва Муҳаббат нури. Тошкент тарихидан икки қисса. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 80 б.
8. Султон, Исажон. Алишер Навоий. Роман. – Тошкент: “АДАБИЁТ” нашриёти, 2021. – 512 б.
9. Норқулов Н. Сатторов М. Миркарим Осим. Адабий портрет. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 108 б.